

RAQAMLI IQTISODIYOTDA HUDUDLARNING BARQAROR VA STRATEGIK RIVOJIGA DAVLAT VA BIZNES SHERIKLIGINING TA'SIRI

Nazarov Nazirjon Narzilloevich
Alfraganus University dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarning barqaror va strategik rivojlanishini ta'minlashda davlat va biznes sektori o'rtasidagi sheriklikning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish, investitsion muhitni yaxshilash, raqamli infratuzilmani rivojlantirish hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining samaradorligi hududiy rivojlanishning asosiy omillari sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda davlat va biznes o'rtasidagi hamkorlikning yangi raqamli model va platformalar orqali hududlarning iqtisodiy raqobatbardoshligi hamda barqaror o'sishiga ta'siri yoritiladi.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, davlat-xususiy sheriklik, hududiy strategiya, raqamli infratuzilma, innovatsion hamkorlik.

Аннотация. В данной статье анализируется роль и значение партнерства между государством и бизнесом в обеспечении устойчивого и стратегического развития регионов в условиях цифровой экономики. Рассматриваются ключевые факторы, включая внедрение цифровых технологий, улучшение инвестиционного климата, развитие цифровой инфраструктуры и повышение эффективности механизмов государственно-частного партнерства. Исследование раскрывает влияние новых цифровых моделей и платформ взаимодействия между государством и бизнесом на повышение конкурентоспособности регионов и их устойчивый экономический рост.

Ключевые слова: цифровая экономика, устойчивое развитие, государственно-частное партнерство, региональная стратегия, цифровая инфраструктура, инновационное сотрудничество.

Abstract. This paper examines the role and significance of government–business partnerships in ensuring the sustainable and strategic development of regions within the digital economy. Key factors such as the implementation of digital technologies, improvement of the investment environment, development of digital infrastructure, and the effectiveness of public–private partnership mechanisms are explored. The study highlights how new digital models and collaboration platforms between the public and private sectors enhance regional competitiveness and foster sustainable economic growth.

Keywords: digital economy, sustainable development, public–private partnership, regional strategy, digital infrastructure, innovative collaboration.

Kirish. Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish jarayonida hududlarning barqaror o'sishi va strategik rivojlanishini ta'minlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotining hozirgi bosqichi raqamli texnologiyalar, innovatsion yechimlar va samarali boshqaruv mexanizmlarini talab etmoqda. Ayni paytda infratuzilma obyektlarini modernizatsiya qilish, aholiga ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish va iqtisodiy faoliyat imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida davlatning moliyaviy va tashkiliy imkoniyatlari ko'pincha cheklangan bo'ladi.

Shu nuqtayi nazardan, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) modeli davlat va biznes sektori imkoniyatlarini birlashtiruvchi, investitsiyalarni jalb qilishga xizmat qiluvchi va hududiy barqaror rivojlanishni ta'minlovchi eng samarali mexanizmlardan biri sifatida qaraladi. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida DXSh mexanizmlarining funksional imkoniyatlari kengayib, loyihalarni boshqarish, monitoring qilish va moliyalashtirishning yangi modellari shakllanmoqda.

O'zbekiston amaliyotida ham DXSh loyihalarini tatbiq etish jarayonida qator muammolar yuzaga kelgan. Xususan, ijtimoiy loyihalarni ishlab chiqish, ularni moliyalashtirish, ishga tushirish va texnik xizmat ko'rsatishni tashkil etish masalalari barqaror hal etilmagan. Sog'liqni saqlash, ta'lim, kommunal xizmatlar sohalarida yangi loyihalarni amalga oshirish va mavjud loyihalarining samaradorligini ta'minlash bo'yicha dolzarb masalalar saqlanib qolmoqda. Shu bois, davlat va biznesning samarali hamkorligi, shuningdek raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali loyihalarni boshqarishning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish O'zbekistonning hududiy rivojlanish strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. DXSh munosabatlari xalqaro ilmiy adabiyotlarda iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida keng tadqiq etilgan. Amedanou (2024) DXSh modeli davlat qarzi yuqori bo'lgan davrlarda iqtisodiyotni moliyalashtirishning muhim mexanizmi sifatida xizmat qilishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, xususiy sektor ishtiroki infratuzilma loyihalarining moliyaviy barqarorligini oshiradi.

Krepl va hammualliflar (2023) DXSh projektlarining samaradorligiga ta'sir qiluvchi mezonlarni o'rgangan va rivojlanayotgan davlatlar uchun mos bo'lgan barqaror energetika loyihalarini baholash modeli – GAN-based decision system – ni ishlab chiqqan. Ular DXSh qarorlarining iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy sharoitlarga bog'liqligini alohida ta'kidlaydilar.

O'zbekistonlik tadqiqotchilar (Elmirzaev, Shavkatov, 2019; Botirov va boshq., 2021; Shavkatov va boshq., 2023) esa milliy amaliyotda DXShning dolzarbligi, mavjud muammolar, infratuzilma obligatsiyalaridan foydalanish istiqbollari va xususiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini o'rganishgan. Ularning ishlari mamlakatimiz sharoitida DXShni joriy etish uchun zarur bo'lgan institutsional muhitni shakllantirish zaruratini ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, DXSh modeli ayniqsa quyidagi holatlarda samarali natija beradi: infratuzilma obyektlarini tezkor modernizatsiya qilish zarur bo'lganda; davlat byudjeti imkoniyatlari cheklanganida; raqamli boshqaruv tizimlarini joriy qilish talab etilganda; uzoq muddatli iqtisodiy va ijtimoiy

ta'sirlar hisobga olinishi lozim bo'lganda.

Shu bois, DXShning hududiy barqaror rivojlanishdagi roli nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki ijtimoiy barqarorlik va xizmatlar sifatini oshirish mezonlari bilan baholanishi lozim.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda hududiy barqaror rivojlanishda DXShning ahamiyatini o'rganish uchun quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi: Nazariy tahlil metodi – DXShning mazmuni, huquqiy va iqtisodiy asoslari bo'yicha ilmiy manbalar tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil – rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar amaliyoti O'zbekiston sharoiti bilan solishtirildi. Statistik tahlil – O'zbekiston hududlarida 2023-yilda rejalashtirilgan DXSh bitimlari bo'yicha mavjud ma'lumotlar o'rganildi. Mantiqiy tahlil – DXSh mexanizmlarining raqamli iqtisodiyot sharoitida samaradorlik omillari izohlandi. Deduktiv yondashuv – umumiy nazariy tushunchalardan kelib chiqib, O'zbekiston hududlaridagi DXSh loyihalari samaradorligi yuzasidan xulosalar chiqarildi.

Ushbu metodlar tadqiqotning kompleksligini ta'minlab, raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat-biznes hamkorligining hududiy rivojlanishga ta'sirini har tomonlama yoritishga yordam berdi.

Tahlil va natijalar. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston iqtisodiyotida infratuzilma loyihalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi iqtisodiy o'sishga sezilarli to'sqinlik qilmoqda. Transport, energetika, kommunal xizmatlar kabi tarmoqlarda modernizatsiya ishlari uchun talab qilinadigan investitsiyalar hajmi mavjud davlat byudjet imkoniyatlaridan sezilarli darajada yuqori.

DXSh modeli ushbu muammoni hal qilishning eng samarali mexanizmlaridan biri bo'lib, quyidagi natijalarni ta'minlaydi: loyihalarining uzoq muddatli moliyalashtirilishini kafolatlaydi; xususiy sektorning innovatsion yondashuvlarini iqtisodiy jarayonga jalb etadi; raqamli boshqaruv tizimlari orqali monitoringning shaffofligini oshiradi; davlat xarajatlarini kamaytiradi; xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi.

2023-yilda O'zbekiston bo'yicha DXSh loyihalari tahlili shuni ko'rsatdiki: umumta'lim maktablari bo'yicha 6479 ta, maktabgacha ta'lim muassasalari bo'yicha sezilarli son, madaniyat, musiqa va sport obyektlari bo'yicha 749 ta shartnomalar tuzish rejalashtirilgan. Bu esa hududlarda ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiya qilish jarayonida DXShning asosiy rol o'ynayotganini ko'rsatadi.

Xalqaro tajribaga ko'ra: infratuzilmaga kiritilgan investitsiyalarning 1% ga oshishi rivojlangan davlatlarda YaIMning 2–2,5% ga, rivojlanayotgan davlatlarda esa 1,25–1,5% ga o'sishiga olib keladi.

Shuningdek, infratuzilma investitsiyalarining bandlikka ta'siri ham sezilarli: Hindistonda – 3,4 mln, AQShda – 1,5 mln, Braziliyada – 1,3 mln yangi ish o'rinlari yaratiladi. Bu ko'rsatkichlar O'zbekiston sharoitida ham DXSh imkoniyatlaridan keng foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

“Mamlakatimizning iqtisodiy o'sishida to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan asosiy omillar transport, energetika, kommunal xizmatlar kabi infratuzilma tarmoqlarining yetarlicha rivojlanmaganligidir. Shuningdek, ushbu tarmoqlarda

infratuzilma obyektlarini rivojlantirish va modernizatsiya qilish bo'yicha zarur investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun investitsiyalarning yetishmasligi va zamonaviy texnologiyalarni jalb etish darajasining pastligi asosiy muammolardan hisoblanadi. Bunday muammolarni hal etishda dunyo amaliyotida eng samarali usullardan biri davlat-xususiy sheriklik asosida investitsion loyihalarni amalga oshirish hisoblanadi". Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining infratuzilmani rivojlantirishdagi o'рни va ahamiyati mazkur amaliyotning kengaytirish zaruratini ko'rsatadi.

"Xususiy sektorni rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilish bugungi kunda iqtisodiyotni rivojlantirishdagi eng asosiy masalalardan hisoblanadi. Iqtisodiyotni rivojlantirish bilan bir qatorda davlat o'z funksiyalarini bajarish davomida ijtimoiy sohani ham qo'llab-quvvatlashi va rivojlantirishi zarur. Shu sababli davlat-xususiy sheriklik amaliyoti xalqaro darajada tadqiq qilinmoqda. Mamlakatimizda ham davlat-xususiy sheriklik amaliyotini shakllantirishga e'tibor qaratilmoqda va bu orqali xususiy sektordan investitsiyalar jalb qilish, mamlakat infratuzilmasini rivojlantirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish kabilarga erishish mumkin". Shu sababli davlat-xususiy sheriklik loyihalari qamrovini kengaytirish lozim.

Hududlar kesimida davlat ijtimoiy soha obyektlari bo'yicha 2023-yilda davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimlar rejasi sohalar kesimida tahlil qilinsa, mazkur shartnomalar umumta'lim maktablari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, sog'liqni saqlash muassasalari, madaniyat, musiqa va sport muassasalari bilan tuzilishi rejalashtirilgan. Xususan, jami mamlakatimiz bo'yicha eng ko'p shartnomalar umumta'lim maktablari (6479 ta shartnoma) bilan tuzilishi ko'zda tutilgan bo'lsa, eng kam ko'rsatkich madaniyat, musiqa va sport muassasalari (749 ta shartnoma) bo'yicha ekanligini qayd etish lozim.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat-xususiy sheriklik hududlarning barqaror va strategik rivojlanishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. DXSh orqali: infratuzilma obyektlarini modernizatsiya qilish; investitsiyalarni jalb qilish; raqamli boshqaruv va monitoring tizimlarini joriy etish; ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish; hududlar iqtisodiy raqobatbardoshligini kuchaytirish mumkin.

O'zbekiston sharoitida DXSh mexanizmlaridan samarali foydalanish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: institutsional muhitni yanada takomillashtirish; raqamli platformalar orqali DXSh loyihalarini boshqarish mexanizmlarini kuchaytirish; infratuzilma obligatsiyasidan foydalanish amaliyotini kengaytirish; xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirish. Shu tariqa, davlat va biznes o'rtasidagi hamkorlikning raqamli iqtisodiyot sharoitidagi yangi modeli hududlarning barqaror iqtisodiy o'sishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish to'g'risida" PQ-118-son Qarori, 2-ilova. <https://lex.uz/docs/-6427809>

2. Yawovi Mawussé Isaac Amedanou. Financing the economy in debt times: The crucial role of public–private partnerships. // Research in Economics, Volume 77, Issue 3, September 2024, Pages 295-309

3. Vladimír Krepl, Ghaeth Fandi, Mohammad Rehabi, Safwan Ghanem, Fayez Jrad, Zdenek Muller, Luboš Smutka, Jan Kyncl, Melkior Urbanus, Soliman Fandie, Inna Čábelková, Josef Tlustý, Effective criteria in the public-private partnership in developing countries to apply the sustainable development goals: GAN-based decision support system for the renewable electrical system, case study Syria, Heliyon, Volume 9, Issue 11, 2023

4. Элмирзаев С. Э., Шавкатов Н. Ш. Давлат-хусусий шериклик муносабатларининг илғор хориж тажрибалари ва мамлакатимизда қўллаш истиқболлари. “//Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. – 2019. – Т. 3.

5. Botirov PhD A., Omonov S., Turobkhonov S. Features of public-private partnership practice //International Finance and Accounting. – 2022. – Т. 2021. – №. 1. – С. 17.

6. Shavkatov, N.; Rakhmedova, M.; and Bozorov, U. (2023) "Issues of attracting the private sector in public-private partnership through infrastructure bonds," International Finance and Accounting: Vol. 2021: Iss. 1, Article 23.